# BUVAYDA TUMANILIK O’ZBEKISTON QAHRAMONI PATILAXON ERGASHEVA QISHLOQ XO’JALIGINING CHINAKAM FIDOYILARIDAN BIRI.

U huzur-halovatni qadrdon dalasidan topadi, paxta, g’alla hosildorligini oshirish uchun tinmay harakat qiladi. Shu bois ham uning boshchiligidagi fermer xo’jaligida hosildorlik yildan-yilga ortmoqda.

Viloyat hokimi Xayrullo Bozorov viloyat sektorlari rahbarlari hamrohligida qahramon opani yo’qlashdi. Patilaxon opa bilan samimiy muloqotda paxtachilikdagi yangi texnologiyalar, dehqonchilik ilmi haqida so’z bordi.

Ayni kunlarda “Patilaxon” fermer xo’jaligida 28 gektar maydondagi paxta terib olinayotgan bo’lib, hosildorlik o’rtacha 50 tsentnerni tashkil etmoqda.

**Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating**
Facebook, Telegram, Facebook, YouTube, Instagram
2024-09-26 09:34:57